PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

# ALISHER NAVOIYNING “ARBA’IN” ASARIDA IJTIMOIY ODOB MASALALARI TAHLILI

**Odiljonova Mohinur Shokirjon qizi**
Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20135382

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Arba’in” asaridagi hadislarning badiiy talqini va ularning ijtimoiy munosabatlar hamdajamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni tadqiq etiladi. insoniy fazilatlar — rahm-shafqat, shukronalik, jamiyatga naf keltirish va xushmuomalalik kabi tushunchalar tahlil qilinadi.
**Kalit so‘zlar:** hadis, an’ana, tarjimonlik, qit’a, odob, ijtimoiy axloq,targ‘ib qilish

## KIRISH

Sharq adabiyotida “Arba’in” an’anasi mavjud bo‘lib, unda 40 ta hadis tanlab olinib, mazmun-mohiyati she’riy usulda sharh qilingan. Bunday an’ananing vujudga kelishiga asosiy sabab qilib Payg‘ambarimizning “Kim mening 40ta hadisimni o‘rganib, boshqalarga o‘rgatsa, Alloh taolo uni qiyomat kunida olimlar bilan birga tiriltiradi” degan hadislari keltiriladi. “Arba’in” so‘zi “qirq”, “chilla saqlash” (40 kun saqlangani uchun) degan ma’nolarni anglatadi.

Navoiy ustozi Abdurahmon Jomiyning “Chihil hadis” (qirq hadis)ini turkiy tilga tarjima qilgan. Ta’kidlab o‘tish joizki, bu erkin tarjima bo‘lib, Navoiy unga qisqartirish, to‘ldirish kabi qo‘shimchalar kiritgan, bunda shoirning tarjimonlik mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asar qit’a janrida bitilgan bo‘lib, jami 108 baytdan iborat. An’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi, sababi nazmi kitob qismida asarni yozishdan maqsadi “forsiydonlar idrok aylagan” qirq hadis mohiyatidan turkiyzabonlarni ham bahramand qilish ekanligini aytib o‘tadi.

## Muhokama va natijalar

6-HADIS

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: «Kim odamlarga shukr qilmasa, Alloh azza va jallaga ham shukr qilmabdi», dedilar».

Termiziy, Ahmad va Bayhaqiylar rivoyat qilgan.

Ulki Xoliqg‘a shukr der, avval
Shokir o‘lmoq kerak xaloyiqdin.
Kimki, maxluq shukrini demagay,
Demagay dag‘i shukr Xoliqdin.

Xoliqqa ya’ni Allohga shukr qiladigan kishi avval xaloyiqqa – odamlarga shukr keltirishi kerak ya’nikim, ulardan rozi bo‘lishi kerak. Insonlardan rozi bo‘lgan odam avvalo Yaratgandan rozi bo‘lgan hisoblanadi. Chunki, insonlar o‘rtasidagi har qanday munosabat Alloh taolo irodasi bilan bo‘ladi. Ushbu qit’a orqali Navoiy insonlarni avvalo shukr qilishga, bir-biridan rozi bo‘lishga targ‘ib qilmoqda.

7-HADIS

Jarir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Men Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning: «Kim odamlarga rahm qilmasa, Alloh azza va jalla ham unga rahm qilmaydi», deyayotganlarini eshitdim».

Ahmad, Tabaroniy rivoyat qilgan.

Tengridin rahm agar tama’ qilsang,
Avval o‘lmoq keraksen elga rahim.
Xar kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas Rahimu Karim.

Agar Tangridan rahm talab qilsang, avvalo elga rahmli bo‘lishing kerak. Kimki insonlarga rahm qilmasa, unga Rahimu Karim bo‘lgan Alloh ham rahm qilmaydi.

Rahim – o‘ta rahmli, shafqatli, doimo va barchaga mehribon Zot. Karim – fazlu karamli, saxovatli, ulug‘vor Zot.

Ushbu hadis bejiz tanlanmagan bo‘lib, Navoiy ushbu sharh orqali, odamlarni bir-biriga rahm-shafqatli bo‘lishlarini ta’kidlaydi. Ushbu hadisda yana bir nozik ma’no borki, uni umumiy xulosa sifatida ham keltirishimiz mumkin: O‘zing uchun Allohdan nimaiki talab qilsang, eng avval shu narsalarni odamlarga berishing kerak.

23-HADIS

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: «Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaati ko‘prog‘idir», dedilar».

Bayhaqiy va Doraqutniy rivoyat qilgan.

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?
Eshitib, ayla shubha raf’ andin,
Yaxshiroq bil ani ulus arokim,
Yetsa ko‘prak ulusqa naf’ andin.

«Xalq ichida yaxshiroq odam kim?» desang, buni eshit va shubhadan yiroq bo‘l: ulusga ko‘proq foydasi tekkan kishini eng yaxshisi deb bil. Insonlarga yaxshilik qilishni dinimiz Islom eng ulug‘ amallardan deb hisoblaydi, buni yuqorida keltirilgan hadisdan ham bilib olishimiz mumkin. Aynan mana shu hadisni sharh uchun tanlab olinishi o‘zida ulkan ma’no, ta’kid, eslatma mavjud bo‘lib, bu orqali shoir zamona kishilarini yaxshilik qilishga, bir-birlariga foyda keltirishga chorlaydi. Bu ishlarni qilgan odamning martabasi qanchalik yuqori ekanligini ham tushunarli, xalqchil qilib ifodalaydi.

24-HADIS

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: «Albatta, Alloh muomalasi oson, ochiq yuzli kishini sevadi», dedilar».

Bayhaqiy va Daylamiy rivoyat qilgan.

Haq seni sevgay el bila bo‘lsang,
Tilingu ko‘nglungi qilib yakro‘y,
Nukta sursang shukuftau xandon,
Zist qilsang kushodau xushro‘y.

Agar odamlar bilan samimiy va bir xil muomalada bo‘lsang, ya’ni tiling bilan ko‘ngling bir bo‘lsa, Haq (Alloh) seni sevadi. Gapirsang ochiqlik va tabassum bilan gapir, yashasang ham keng (ochiqko‘ngil) va xushfe’l bo‘lib yashagin.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Arba’in” asari diniy-axloqiy yo‘nalishdagi asar bo‘lib, hadislarni tushunarli xalqchil tarzda sharh qilgandir. O‘sha davr sharoitidan kelib chiqib, bundan tashqari an’anaga sodiq holda she’riy tahlil qilinganligi asardan bir nechta ma’nolar chiqarishimizga dastak bo‘ladi. Yuqorida tahlilga tortilga qit’alar har zamonda, makonda dolzarb hisoblanib, azaliy muammolardan hisoblanadi. Navoiy ushbu muammolarga oqilona yechimlar berganligi shoirning naqadar yuksak tafakkur egasi ekanidan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Arba’iyn/ Nashrga tayyorl. Karimbek va Saidbek Hasan; Sharhlovchi A.Rustam. T.: Meros, 1991
2. “Tamaddun”. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Toshkent. 2019